ALISHER NAVOIY IJTIMOIY-ANTROPOLOGIK QARASHLARINING ZAMONAVIY YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Gulova Anorgul Axtamovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti
+99891-084-45-21

Axloq masalasi Ko'hna Sharq allomalari ijodiy merosida ustuvor darajada bo'lib, ular yaxshilikni anglashni amaliy fanning asosiy muddaosi deb tushunganlar, odob-axloqqa oid qonun va tamoyillarni amaliyotda qo'llash har bir kishining birlamchi ma'naviy vazifasi sifatida qayd qilingan. Axloqiy mezonlar — bu shaxs xulq-atvoriga baho berish, nima yaxshi hamda nima yomonligini belgilashga xizmat qiladigan tamoyillar va qoidalar majmuidir. Ular jamiyatda tartib-intizomni saqlash, kishilar orasidagi o'zaro ishonch va hurmatni ta'minlash uchun muhim.

Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi falsafiy hamda ijtimoiy-siyosiy qarashlar axloqiy mezonlar tizgini bo'yicha tahlil etilgan. Navoiyning ijtimoiy ideali negizini axloqiy fikrlar ustuvorligi tashkil qiladi. Faylasuf ijtimoiy-antropologik qarashlarida ma'naviy yetuklik, axloqiy poklik hamda ijtimoiylik xudbinlikka qarama-qarshi qo'yiladi.

Axloqni Navoiy mavhum ideal tushuncha sifatida emas, aksincha insonlar orasidagi real xatti-harakatlarni, ularning oila va jamiyatdagi munosabatlari hamda yurish-turishini tartibga soluvchi ta'limot sifatida baholagan.

Alisher Navoiyga ko'ra, kishining qadri moddiy boyligi hamda ijtimoiy mav'qei bilan emas, aksincha uning xulq-atvori, ma'naviy darajasi bilan baholanadi. Inson dunyoviy moddiy ne'matlar, obro'-e'tiborga haddan tashqari berilib ketsa, u atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatini

tushunib yetishga ojizlik qiladi. Faqatgina ularning tashqi jihatlarini ko‘ra oladi. Bu o‘z-o‘zidan narsa hamda hodisalar haqida yuzaki mulohazalar, xulosalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Provardida kishida manmanlik, shuhratparastlik, nodonlik va xudbinlik singari zararli illatlar ildiz otadi. Alisher Navoiy bu kabi insonlarni kaltafahm deb ta’riflaydi. Ular ko‘rinishidan tillaga o‘xshab jozibador bo‘lsa-da, tin oladigan joyi najosat ichida bo‘lgan tilla pashshalar (chivin)ga o‘xshaydi. Alisher Navoiy tashqi ko‘rinishidan xokisor ko‘rinsa-da, lekin ichki dunyosi jozibador bo‘lgan kishilarni olqishlaydi. Barchani ulardan o‘rnak olishga da’vat etadi.

U, xususan, tashqi ko‘rinishidan xokisor, ammo ichki dunyosi nihoyatda jozibador bo‘lgan so‘fiylarni komil insonlar sifatida olqishlaydi. Navoiy, u bilan zamondosh, salaf hamda buyuk xalaflari ishonch-e’tiqodigacha, darvesh – doimo uyg‘oq qalbi, ilmiy va irfoniy yuksalish darajasiga ko‘ra insoniyat jamiyatining eng yuksak toifasi vakilidir. Navoiyning hammaslak do‘sti va zamondoshi Husayn Voiz Koshifiy darvesh to‘g‘risida shunday bitadi: «faqr valilik konidan topilgan gavhar va hidoyat osmonida chaqnagan axtar (yulduz)dir». U – bamisoli quyosh, yaxshiyu yomonga beminnat nur sochadi, hech kimni o‘z nuridan bebahra qoldirmaydi. U zaminday vazmin, tavoze’li, davr va zamon «inqilobi qusuri» ta’sirida o‘zgarmas, o‘z maqomidan siljimas sobit qalb va xulq-atvor sohibi. Darvesh bulut kabi serbaraka, saxovatli. Ho‘lu quruqqa barobar rahmat yomg‘irini yog‘diradi, go‘riston bilan gulistonni ajratib o‘tirmaydi1. Olim va shoirda ixtirochilik va ijodkorlik ishtiyoqi bo‘lsa-da, uning qalbi nafsu hirs changidan ozod bo‘lmagan bo‘ladi. Odam bu g‘ubordan batamom qutulishi, kibru havodan to‘liq ozod bo‘lishi uchun o‘zining shaxsiy «Men»idan voz kechishi lozim. Buning uchun u qalbi va nafsi xoxlayotgan narsalarni fano gulxanida yondirmog‘i hamda “budu nobud”dan xoli bo‘lmog‘i zarur.

[1] Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. - 21 б.

“Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi qismida Navoiy tasavvufiy va axloqiy mezonlar sifatida qanoat, sabr, tavba, zuhd, tavakkul, tavajjuh, tavoze va adab, zikr, rizo va ishq singari fazilatlar haqida bayon qiladi. U ushbu tartibotlar qanday vajdan ustuvorlik kasb etishi va ular qanday holatda so‘fiy xislatiga aylanishi mumkinligiga ham e’tibor qaratadi. Shuningdek, Alisher Navoiy o‘quvchi tushunadigan oson va ravon uslubda mazkur o‘n rukn shartlarini tavsiflaydi. Bu o‘z navbatida mutafakkirning tasavvuf va tariqat qoidalariga doir bilimlardan yetarlicha xabardorligini ko‘rsatadi.

Navoiy “Mahbub ul-qulub”da quyidagi mulohazalarini bayon qiladi: “Yaxshidin yomonlar ham yomonlig‘ ko‘z tutmas, yaxshi yomonlarg‘a ham yaxshilig‘in unutmas. Yaxshiliq qila olmasang, yomonliq ham bore qilma. Yaxshiliqdan yomonlig‘ni yaxshiroq bilmasang, yaxshilarga qo‘shul, yaxshiliq tegrasig‘a evrula olmasang, yaxshilar tegrasiga evrul”2. "Yaxshilik qila olmasang, yomonlik ham qilma" tamoyili Alisher Navoiy axloqining ustuvor qoidasidir. Shu bilan birga, hamisha yaxshi kishilar davrasida bo'lish hamda yaxshilikka intilish da’vat qilinadi.

Navoiy ma’naviy merosida targ’ib qilingan axloqiy fazilatlar zamonaviy yoshlar uchun ham muhimdir. Quyidagi yo‘nalishlar orqali ularni tahlil qilish mumkin:

Yoshlar tarbiyasi hamda ma’naviy barkamollik.

Alisher Navoiy odamning qadr-qiymatini uning axloqi va ma’naviy mavqei bilan baholagan. Hozirgi yosh avlod tarbiyasida ushbu mezon quyidagicha bog‘lanadi:

– **Ichki va tashqi olam hamohangligi:** Mutafakkir tashqi ko‘rinishi oddiy, lekin ichki dunyosi maftunkor bo‘lgan insonlarni (“komil insonlar”) ulug’laydi. Bu yosh avlodni faqatgina tashqi yuzaki chiroyga aldanmasdan, ma’naviy dunyoga ko’proq e’tibor qaratishga chorlaydi.

[2] Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ. 20 жилдлик. 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998– Б. 124.

– **Ilm va odob mashtarakligi:** Bilim olish bilan birgalikda odobni ham egallash zarurligi aytiladi. Yosh avlod uchun ilm nafaqat ma’lumot yig’ish, qolaversa uni ijtimoiy hayotga tatbiq qilish hamda xulq-odob bilan ziynatlash vositasi bo‘lishi kerak.

Shaxsiy mas’uliyat va o‘z-o‘zini tarbiyalash.

Alisher Navoiy odam o‘zining salbiy illatlaridan xalos bo’lishi uchun shaxsiy "Men"ini tark etishi hamda nafsini poklashi lozimligini bayon qiladi.

– **Nafs nazorati:** Bugungi kun yoshlarida o‘z xohish-istaklarini nazorat qilish (riyozat chekish) orqali maqsad yo’lida intilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

– **Xudbinlikka qarshi kurash:** Shuhratparastlik, manmanlik hamda xudbinlik singari salbiy illatlar "kaltafahmlik" belgisi sifatida tanqid qilinadi. Bu yosh avlodni o‘z mas’uliyatini tushunishga va faqatgina o‘z foydasini o‘ylamaslikka o‘rgatadi.

Ijtimoiy xulq-atvor va fuqarolik madaniyati

Navoiy axloqni jamiyatdagi xatti-harakatlarni tartibga soluvchi ta’limot deb tushunadi.

– **Saxovat va bag‘rikenglik:** Ideal shaxs quyosh singari barchaga beminnat ziyo taratishi, hammaga manfaatli bo‘lishi lozim. Bu fuqarolik jamiyatida bag‘rikenglik hamda o‘zaro qo’llab-quvvatlash madaniyatini ifodalaydi.

– **Yaxshilik qilish:** Mutafakkir "Yaxshilik qila olmasang, yomonlik ham qilma" tamoyilini o’rtaga tashlaydi. Bu o’z navbatida jamiyatda murosai-madora bilan tinch-xotirjam hayot kechirishning oltin qoidasidir.

Ma’naviy immunitet

Alisher Navoiy o‘gitlari hozirgi globallashuv davridagi axborotlashgan jamiyatda yosh avlodda har xil zararli mafkuralarga qarshi ma’naviy immunitet hosil qilishda zarur:

- **Zohirparastlikdan saqlanish:** Faqatgina tashqi tomondan ko’rinuvchi yuzaki jihatlarga e’tibor qaratish shaxsni jamiyatda yuz berayotgan holatlar mazmun-mohiyatini anglashga ojiz qilib qo‘yadi. Ma’naviy yetuklik yosh avlodni zararli g‘oyalar hamda yuzaki xulosalar ta’siridan saqlaydi.
- **Sabr va shukr:** "Mahbub ul-qulub"da bayon qilingan qat’iy iroda, qanoat hamda shukr singari qadriyatlar yosh avlodda ijtimoiy hayotdagi qiyin vaziyatlarga qarshi kuchli iroda hosil qiladi.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning axloqiy mezonlari bugungi yoshlarni nafs quli bo‘lishdan himoya qilib, ularni xalq uchun manfaat keltiruvchi, mas’uliyatni bo’yniga oluvchi va ma’naviy uyg‘oq shaxs bo‘lib shakllanishlariga xizmat qiladi.